BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA YANGI BIZNES-MODELLARNI SHAKLLANTIRISH	2595
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIK VA ENERGETIK TRANSFORMATSIYA SHAROITIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	2599
Salomova Sarvinoz Salimovna	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUV JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	2604
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI	2610
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
TRANSFORMASIYALASH JARAYONIDA BANK DEPOZIT BAZASINING IQTISODIY AHAMIYATI	2615
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
ELEKTRON SAVDODA ISTE'MOLCHI ISHONCHI VA RAQAMLI TAJRIBANING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI.....	2621
Baymuradov Shoxrux Mahmudovich	
HUDUDDA TURISTIK DESTINATSIYALARNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA OVERTOURISM TA'SIRINI KAMAYTIRISH USULLARI.....	2626
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
FUNKSIONAL HISOBNI JORIY ETISH DAVR TALABIDIR.....	2635
B.Yu. Maxsudov	
STARTAPLAR VA INNOVATSIYALAR ORQALI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2638
Eminchayev Baxodir Sadikovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO IFRS STANDARTLARIGA MOS TAHLILINI AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI (IFRS 9 VA IFRS 15 STANDARTLARINING JORIY ETILISHINING BANKLARNING FOYDA KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI)	2641
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINING IQTISODIY MOHIYATI VA BOSHQARUV XUSUSIYATLARI	2645
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2650
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
STRATEGIC INTERNATIONALIZATION OF UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR GLOBAL RANKINGS.....	2656
Yunusova Shirin Adxamovna	



ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ, ПРОВОДИМЫХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	2662
Гафуров Анвар Базарбаевич	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	2667
Temirov Jonibek Abdumavlonovich	
ПРОБЛЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	2673
Саидакбаров Хусниддин Абдусаломович	
SUG'URTA VA DAVLAT BUDJETI, YOXUD O'ZARO MUNOSABATLARGA YANGICHA NAZAR.....	2682
Shennayev Xo'jayor Musurmanovich	
MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ZARURLIGI VA AHAMIYATI	2686
Madaminov In'omjon Ozodovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2693
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARINI STRATEGIK BOSHQARISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	2700
O'ktamova Durdona Baxtiyor qizi, Mexmonov Sultonali Umaraliyevich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	2707
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I MODERNIZATSIYASI HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH	2713
Achilov Mashrab Urug'bekovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2718
Djumanov Turat Alimbekovich	
KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH ORQALI HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	2722
Rashidov Mels Karimovich, Umarov Xurshidbek Ixtiyor o'g'li	
KORXONALARDA RAQOBAT USTUNLIGINI YARATISHDA YANGILIKLARNI MOLIYALASHTIRISH VA XATARLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI	2727
Umarova Nilufar Abdukaxor qizi	
MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING STATISTIK TAHLILI VA BANDLIK DARAJASI DINAMIKASI.....	2731
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHDA RISK-MENEJMENTNING NAZARIY ASOSLARI	2735
Misirov Iskandar Abduvaliyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING JADAL RIVOJLANISHI SHAROITIDA O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT INDEKSI O'ZGARISHI VA UNING OMILLI TAHLILI	2740
Karimov Odiljon Boqiyevich	



RAQAMLI BANK XIZMATLARINING JADAL RIVOJLANISHI SHAROITIDA O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT INDEKSI O'ZGARISHI VA UNING OMILLI TAHLILI

Karimov Odiljon Boqiyevich

“Biznesni rivojlantirish banki”

ATB Bank ijro apparati rahbari o'rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2016–2025–yillarda raqamli transformatsiyaning O'zbekiston bank tizimidagi raqobatga ta'siri tahlil qilinadi. HHI va Lerner indekslarining pasayishi bozor konsentratsiyasining izchil kamayganini ko'rsatadi. Raqamli banklar, mobil banking, QR-to'lovlar hamda fintech xizmatlarining kengayishi yirik banklar ustunligini sezilarli darajada qisqartirib, raqobat muhitini kuchaytirdi. Tadqiqotda HHI va Lerner indekslari dinamikasi asosida raqobatning miqdoriy bahosi amalga oshirildi. Mobil banking, QR-to'lovlar va fintech ko'rsatkichlarining ta'siri omilli regressiya modeli yordamida aniqlangan.

Kalit so'zlar: raqamli infratuzilma, Open API, raqobat indeksi, banklararo raqobat, FinTech, PSD2.

Abstract. This article analyzes the impact of digital transformation on banking competition in Uzbekistan during 2016–2025. The decline in the Herfindahl–Hirschman Index and the Lerner Index indicates a consistent reduction in market concentration. The expansion of digital banks, mobile banking, QR payments, and fintech services has significantly reduced the dominance of large banks and strengthened the competitive environment. The study provides a quantitative assessment of competition based on the dynamics of the HHI and Lerner indices. The effects of mobile banking, QR payments, and fintech indicators are identified using a factor (multivariate) regression model.

Key words: digital infrastructure, open API, competition index, interbank competition, FinTech, PSD2.

Аннотация. В статье анализируется влияние цифровой трансформации на банковскую конкуренцию в Узбекистане в 2016–2025 гг. Снижение индексов Херфиндала–Хиршмана и Лернера свидетельствует о последовательном уменьшении рыночной концентрации. Расширение цифровых банков, мобильного банкинга, QR-платежей и финтех-сервисов существенно ослабило доминирование крупных банков и усилило конкурентную среду. В исследовании проведена количественная оценка конкуренции на основе динамики индексов HHI и Лернера. Влияние показателей мобильного банкинга, QR-платежей и финтеха выявлено с использованием факторной (многомерной) регрессионной модели.

Ключевые слова: цифровая инфраструктура, открытые API, индекс конкуренции, межбанковская конкуренция, FinTech, PSD2.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning jadal shakllanishi global moliya tizimining strukturaviy yangilanishiga olib kelmoqda. Mobil banking, onlayn kreditlash, ochiq API platformalari hamda sun'iy intellektga asoslangan scoring tizimlarining kengayishi bank xizmatlarini yanada tezkor, shaffof va iqtisodiy jihatdan samarali mexanizmga aylantirib, banklararo raqobatning sifat ko'rsatkichlarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli ekotizimlar ma'lumot almashinuvi tezligini oshirib, operatsion xarajatlarni optimallashtirmoqda hamda bozorda yangi ishtirokchilar paydo bo'lishi uchun qulay sharoit yaratmoqda.

O'zbekiston iqtisodiy siyosatida raqamli moliya xizmatlari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan bank-moliya tizimi samaradorligini oshirib bo'lmaydi”, deb ta'kidlaydi [1]. Bu holat bank sektorida raqobatni baholash mezonlarini yangilash va ilmiy yondashuvlarni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.



Raqamli xizmatlar infratuzilmasining kengayishi natijasida bozor konsentratsiyasining pasayishi, xizmatlar diversifikatsiyasining kuchayishi hamda mijozlarning banklar o'rtasida erkin migratsiya qilishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bank raqobatini o'lchashda qo'llaniladigan HHI va Lerner indeksleri ushbu transformatsiya jarayonining iqtisodiy ta'sirini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi. FinTech kompaniyalari faoliyatining kengayishi va API integratsiyasining joriy etilishi esa an'anaviy banklar uchun yangi raqobat mexanizmlarini shakllantirib, identifikatsiya jarayonlarining avtomatlashtirilishi, ochiq ma'lumotlar oqimi hamda transaksion xarajatlarning qisqarishi orqali xizmatlar bozorida teng raqobat sharoitlarini mustahkamlamoqda.

Shu bois, raqamli bank xizmatlarining izchil o'sishi sharoitida banklararo raqobat indekslarining dinamikasini aniqlash, mazkur o'zgarishlarga ta'sir etuvchi asosiy raqamli omillarni belgilash hamda bozor konsentratsiyasining barqaror pasayish tendensiyasini ilmiy asosda baholash ushbu tadqiqotning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklararo raqobatni o'lchashga doir fundamental ilmiy asoslar, avvalo, xorijiy tadqiqotlarda shakllangan. Claessens va Laevenning mashhur tadqiqotida bank raqobati Panzar–Rosse H-statistikasi yordamida 50 dan ortiq mamlakatlar kesimida baholanib, raqobat darajasining bozor kontestabelligi hamda kirish–chiqish erkinligi bilan bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [1]. Mazkur ish bank raqobatini faqat HHI kabi soddaroq konsentratsiya ko'rsatkichlari bilan cheklab baholash yetarli emasligini ko'rsatadi.

Jahon bankinging "Banking Competition" mavzusidagi metodik hisobotlarida raqobatni baholashning turli yondashuvlari — HHI, Lerner indeksi, Boone indikatori va Panzar–Rosse modeli — tizimli ravishda taqqoslangan [2]. Ushbu hisobotlarda raqobat darajasining pasayishi kreditlar narxining oshishi, xizmatlar sifatining susayishi hamda moliyaviy inklyuziyaning sekinlashishiga olib kelishi qayd etilib, raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashning muhimligi asoslab beriladi. Mazkur metodologik yondashuv ushbu tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlaydi.

Bank raqobati modellarining chuqur ilmiy sharhi Bikker va Spierdijk tahriri ostida nashr etilgan "Handbook of Competition in Banking and Finance" asarida keltirilgan bo'lib, unda raqobatni o'lchash usullari, raqobat va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi muvozanat hamda raqamli innovatsiyalar fonida yuzaga kelayotgan yangi risklar atroflicha yoritilgan [3].

O'zbekiston sharoitida banklararo raqobatning nazariy asoslarini yoritishda Mirzayev F.ning "O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi muhim manba hisoblanadi [4]. Muallif ushbu ishida xizmatlar sifati, innovatsion mahsulotlar, tartibga solish muhiti hamda marketing strategiyalarining banklararo raqobatga ta'sirini tizimli ravishda tahlil qilgan.

Shuningdek, Ortiqov A.O. tadqiqotlarida tarif siyosati, xizmatlar diversifikatsiyasi va mijozlar segmentatsiyasining raqobat muhitiga ta'siri ilmiy asosda yoritilib, bank xizmatlarini takomillashtirishning asosiy drayverlari ko'rsatib berilgan [5]. Ushbu ishlar milliy ilmiy adabiyotda banklararo raqobat nazariyasining shakllanishiga muhim hissa qo'shgan.

Raqamli texnologiyalar ta'siriga bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlarda Qulmetov M.R.ning ishlari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ularda mobil banking, QR-to'lovlar va fintech ekotizimlarining kengayishi natijasida banklararo raqobatning sezilarli darajada kuchaygani real statistik ma'lumotlar asosida asoslab berilgan [6]. Saidov S. va Raximov Sh. tadqiqotlarida esa raqamli texnologiyalarning joriy etilishi banklarning operatsion xarajatlarni qisqartirgani, xizmatlar tezligini oshirgani hamda moliyaviy inklyuziyaning kengaytirgani bo'yicha aniq dalillar keltiriladi [7]. Ularning tahlillari raqamli transformatsiya bilan banklararo raqobat o'rtasida bevosita va barqaror bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 2016–2025–yillarda O'zbekiston bank tizimi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar asosida raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari — mobil banking, raqamli tranzaksiyalar, QR-to'lovlar, POS-terminallar hamda onlayn kreditlash — dinamikasi jadval va grafiklar yordamida tizimli ravishda tahlil qilindi. Ma'lumotlarning ishonchlilikini ta'minlash maqsadida Markaziy bank va Statistika agentligi hisobotlari o'zaro solishtirildi hamda vaqt qatori tahlili usullari qo'llanildi. Ushbu yondashuv raqamli xizmatlar rivojlanishining umumiy tendensiyalarini aniqlash va ularning bank tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirini baholash imkonini berdi.

Banklararo raqobat darajasi Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) hamda Lerner indeksi formulalari asosida hisoblandi va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishi raqamli ko'rsatkichlar bilan solishtirma tahlil qilindi. Bozor strukturasidagi sifat o'zgarishlarini baholash uchun yirik universal banklar, o'rta va kichik banklar hamda raqamli banklar segmentlari bo'yicha bozor ulushlari taqqoslandi. Olingan natijalar asosida raqamli transformatsiyaning raqobat muhitiga ta'siri miqdoriy va sifat jihatdan izchil baholanib, bank sektoridagi tarkibiy siljishlarning asosiy yo'nalishlari aniqlab berildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

2016–2025–yillar davomida O'zbekiston bank tizimida raqamli infratuzilma jadal kengayib, xizmat ko'rsatish modeli chuqur transformatsiyaga uchradi. Mobil banking foydalanuvchilari sonining 2,6 milliondan 16 milliongacha oshishi banklarning filialga bog'liq an'anaviy operatsion mexanizmlaridan raqamli kanallar markaziga bosqichma-bosqich o'tilganini anglatadi. Raqamli tranzaksiyalar hajmining 18 trln so'mdan 800 trln so'mgacha ko'tarilishi iqtisodiyotda naqd pulsiz segmentning sezilarli darajada kengayganini hamda to'lov infratuzilmasi samaradorligi oshganini ko'rsatadi. QR-to'lovlar sonining 5 milliondan 620 milliongacha tez sur'atlarda o'sishi texnologik diversifikatsiya jarayonini jadallashtirib, an'anaviy POS tarmog'ining ustun mavqeini sezilarli darajada muvozanatlashtirdi. Onlayn kreditlash ulushining 1,2 foizdan 30 foizgacha oshishi kredit baholash jarayonlarida avtomatlashtirilgan scoring tizimlari, masofaviy identifikatsiya hamda real vaqt rejimidagi ma'lumot almashinuvi kabi innovatsiyalarning izchil joriy etilganini tasdiqlaydi. Mazkur ko'rsatkichlar majmui bozor ulushlarining ko'proq ishtirokchilar o'rtasida qayta taqsimlanishiga olib kelib, raqobat indeksi (HHI)ning pasayishi hamda banklarning monopol kuchini aks ettiruvchi Lerner indeksining izchil qisqarishi uchun mustahkam iqtisodiy asos yaratdi.

Quyidagi jadval 2016–2025–yillar davomida raqamli bank xizmatlari ko'rsatkichlarining evolyutsion dinamikasini aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston bank tizimida raqamli bank xizmatlari dinamikasi (2016–2025).¹

Yil	Mobil banking foydalanuvchilari (mln)	Raqamli tranzaksiyalar hajmi (trln so'm)	QR to'lovlar (mln dona)	POS terminallar (ming dona)	Onlayn kreditlash ulushi (%)
2016	2.6	18	5	180	1.2
2017	3.8	45	12	220	2.5
2018	5.1	89	36	260	4.8
2019	7.3	150	80	300	7.6
2020	9.8	210	160	340	11.4
2021	11.5	370	260	380	14.2
2022	13.0	520	350	430	18.7
2023	14.2	660	480	480	22.9
2024	15.1	730	550	520	26.4
2025	16.0	800	620	550	30.0

Izoh: 2025-yil uchun keltirilgan ko'rsatkichlar prognoz xarakteriga ega bo'lib, ular 2024-yil bo'yicha mavjud real statistik trendlar asosida ekstrapolyatsiya usuli orqali hisoblab chiqilgan.

Jadval ma'lumotlari asosida O'zbekiston bank sektorida raqobat darajasini miqdoriy baholash maqsadida Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) qo'llanildi. Ushbu indeks banklar bozoridagi ulushlarning qanchalik markazlashgan yoki fragmentatsiyalashganligini aniqlash imkonini berib, xalqaro amaliyotda bozor raqobat darajasini baholashning eng ishonchli ko'rsatkichlaridan biri sifatida keng tan olingan.

HHI indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$HHI = \sum_{i=1}^n s_i^2$$

bu yerda:

s_i — i-bankning bozor ulushi (% ko'rinishida).

HHI qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, bozor konsentratsiyasi shunchalik yuqori bo'ladi, ya'ni bozor kam sonli yirik banklar qo'lida jamlangan holda shakllanadi. Aksincha, HHI qiymati past bo'lgan sharoitda bozor ulushlari ko'plab ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi va raqobat muhiti nisbatan kuchli bo'lishi bilan tavsiflanadi.

¹ 2025-yil ko'rsatkichlari — Markaziy bankning 2024-yil 4-chorak prognozlari va 2016–2024–yillardagi o'sish trendi asosida ekstrapolyatsiya qilingan (muallif hisob-kitobi).



Mazkur jadvalda HHI indeksi bo'yicha bozor konsentratsiyasi darajalari uch toifaga ajratilgan bo'lib, u bank sektorida raqobat muhitini miqdoriy baholash imkonini beradi. $HHI < 1500$ bo'lgan holatda bozor past konsentratsiyali deb baholanadi, ya'ni bozor ulushlari ko'plab ishtirokchilar o'rtasida nisbatan teng taqsimlangan va raqobat muhiti yuqori darajada shakllangan bo'ladi. Bu sharoitda banklar narx belgilashda mustaqil harakat qilish imkoniyatiga kamroq ega bo'lib, xizmatlar sifati va innovatsiyalar orqali raqobatlashishga majbur bo'ladi.

HHI 1500–2500 oralig'ida bo'lgan holat o'rtacha konsentratsiyalashgan bozorni anglatadi. Bunda raqobat saqlanib qoladi, biroq ayrim yirik banklarning bozor ulushi nisbatan ustun bo'lib, ular bozor dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. $HHI > 2500$ bo'lgan sharoit esa yuqori konsentratsiyalashgan bozorni ifodalaydi, bunda bozor asosan yirik banklar qo'lida jamlangan bo'ladi va hukmronlik mavqeining kuchayishi ehtimoli ortadi. Shu bois, HHI ko'rsatkichlari bozor tuzilmasini baholashda muhim indikator bo'lib, raqobat siyosatini shakllantirishda asosiy analitik mezonlardan biri sifatida xizmat qiladi.

2016-yilda NBU, Agrobank, Ipoteka banki hamda Xalq banki bozor ulushining katta qismini egallagan bo'lib, raqobat muhiti nisbatan cheklangan edi. 2018–2020-yillarda Uzum, Payme va Apelsin kabi fintech xizmatlarining jadal kirib kelishi mijozlarning banklarga bog'liqligini kamaytirib, yirik banklar ulushining bosqichma-bosqich parchalana boshlashiga zamin yaratdi. Raqamli to'lovlar va mobil banking xizmatlarining kengayishi esa bozor tuzilmasining diversifikatsiyalashuviga xizmat qildi.

Pandemiya davrida (2020-yil) raqamli bank xizmatlaridan foydalanish keskin oshdi va bozor ulushlari ko'proq ishtirokchilar o'rtasida qayta taqsimlandi. Natijada HHI ko'rsatkichi 1490 punktga pasayib, raqobat muhiti sezilarli darajada mustahkamlandi. 2023–2025-yillarda Uzum Bank, TBC Bank, Universal Bank hamda Anor Bankning bozorga faol kirib kelishi an'anaviy banklar ulushining qisqarishiga olib keldi va bank sektorini yanada raqobatbardosh tuzilma sari yo'naltirdi.

Banklar o'rtasidagi raqobat darajasini chuqur tahlil qilishda Lerner indeksi xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu indeks bankning narx belgilash kuchini, ya'ni foiz stavkalari orqali qanchalik darajada bozor ustunligiga ega ekanini aniqlash imkonini beradi. Lerner indeksi qanchalik yuqori bo'lsa, bankning xizmat narxlarini mustaqil belgilash imkoniyati shunchalik keng bo'ladi; aksincha, indeks qiymatining pasayishi bozorning raqobatbardoshligini kuchaytirib, narx belgilash imkoniyatlarini cheklaydi.

$$L = \frac{P - MC}{P}$$

Lerner indeksi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

Bu yerda P bankning kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz daromadini (yoki marjasini), MC esa kredit portfelini shakllantirish uchun sarflanadigan chegaraviy xarajatlarni (mablag' tannarxini) ifodalaydi. Lerner indeksining qiymati 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda bo'lib, u bankning bozor kuchini tavsiflaydi: $L = 0$ holatida raqobat juda yuqori bo'ladi va bank narx belgilash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, $L = 0,5$ monopol kuchning o'rtacha darajasini anglatadi, L qiymatining 1 ga yaqinlashuvi esa monopol kuchning yuqori darajasini va raqobat muhitining nisbatan cheklanganligini ko'rsatadi. 2025-yilda tijorat banklarining kredit operatsiyalari bo'yicha o'rtacha daromadi $P = 22\%$ ni tashkil etgani, kredit resurslari bo'yicha shakllangan chegaraviy xarajatlar esa MC ko'rsatkichi orqali baholanishi ushbu indeks yordamida narx belgilash kuchini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini beradi.

$MC = 15\%$.

$$\text{Shunda: } L = \frac{22 - 15}{22} = \frac{7}{22} = 0.318$$

Natija: Lerner = 0.31 → bu bankda narx belgilash kuchi past, raqobat yuqori.

Uzum, TBC va Universal kabi raqamli banklarning nisbatan qulay tariflar bilan bozorga kirib kelishi an'anaviy banklar marjasining qisqarishiga olib kelgan bo'lsa, depozitlar bo'yicha xarajatlarning oshishi kredit resurslari tannarxining ko'tarilishiga sabab bo'lib, foiz marjasining yanada moslashuvchan shakllanishini ta'minladi. O'zbekiston bank tizimida 2016–2025-yillar davomida raqamli transformatsiya jarayonlari bozor raqobatining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi: raqamli bank xizmatlarining kengayishi, fintech ekotizimining shakllanishi, QR-to'lovlar hamda masofaviy identifikatsiya tizimlarining joriy etilishi banklar o'rtasidagi raqobatni ko'p yo'nalishlarda kuchaytirib, bozor ulushlarining qayta taqsimlanishiga olib keldi va bu holat raqobat indekslariga, xususan, HHI hamda Lerner ko'rsatkichlariga miqdoriy va sifat jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mazkur bo'limda raqamli infratuzilmaning raqobat muhitiga ta'sirini aniqlash maqsadida omilli iqtisodiy-statistik tahlil qo'llanilib, bank xizmatlari bozoridagi asosiy raqamli indikatorlar — mobil banking foydalanuvchilari soni (MB), QR-to'lovlar hajmi (QR), POS-terminallar soni (POS), fintech platformalarining soni va faolligi (Fintech) hamda raqamli tranzaksiyalar hajmi (Trx) — bilan raqobat ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholashga qaratilgan regressiya modeli qo'llanildi (2-jadval).

2-jadval. Raqamli omillarning HHI indeksiga ta'sir koeffitsiyentlari.²

Omillar	Koeffitsiyent (β)	Ta'sir yo'nalishi	Talqin
MB (mobil banking)	-0.45	Manfiy	Mobil banking o'sishi konsentratsiyani pasaytiradi
QR to'lovlar	-0.28	Manfiy	QR to'lovlar bozorni fragmentatsiyalaydi
POS terminallar	-0.19	Manfiy	POS tarmog'i kengayishi raqobatni kuchaytiradi
Fintech xizmatlari	-0.62	Kuchli manfiy	Fintech raqobatni eng ko'p oshiradi
Tranzaksiya hajmi	-0.31	Manfiy	Tranzaksiya ko'payishi bozor ulushini tarqatadi

Loyihalashtirilgan regressiya natijalari shuni ko'rsatadiki, HHI indeksining pasayishiga eng kuchli ta'sir fintech kompaniyalarining jadal kirib kelishi ($\beta = -0,62$) orqali yuzaga kelgan bo'lib, ular tezkor va iqtisodiy jihatdan qulay xizmatlari bilan an'anaviy banklarning bozor ulushini sezilarli darajada qisqartirdi. Mobil bankingning kengayishi ($\beta = -0,45$) filialga bog'liq xizmatlarning ulushini kamaytirib, mijozlar oqimining bir nechta banklar o'rtasida qayta taqsimlanishiga xizmat qildi. QR-to'lovlar hajmining o'sishi ($\beta = -0,28$) to'lovlar segmentidagi markazlashuv darajasini pasaytirib, tariflarning moslashuvchanlashuvi va raqobat muhitining kuchayishiga zamin yaratdi. POS-terminallar tarmog'ining kengayishi ($\beta = -0,19$) naqd pulsiz iqtisodiyot rivojini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, QR-tizimlarning tez sur'atlarda kengayishi fonida uning nisbiy ta'siri biroz sekinroq namoyon bo'ldi. Raqamli tranzaksiyalar hajmining ortishi ($\beta = -0,31$) bozor ulushlarining ko'proq ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishiga olib kelib, HHI indeksining pasayish tendensiyasini yanada mustahkamladi.

O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayoni bozor raqobatining strukturaviy qayta taqsimlanishiga olib keldi. 2016–2025–yillar davomida yirik universal banklar ulushi sezilarli darajada qisqargan bo'lsa, o'rta va kichik banklar hamda yangi tashkil etilgan raqamli banklarning bozor ulushi barqaror sur'atlarda oshdi. Ushbu jarayon bozorni monopolistik modellardan uzoqlashtirib, ko'p ishtirokchili va ochiq raqobat tizimiga yaqinlashtirdi. Segmentlar bo'yicha kuzatilgan taqsimot nafaqat bozor ulushlaridagi o'zgarishlarni, balki banklar strategiyalarining ham tubdan qayta ko'rib chiqilayotganini anglatadi.

O'rta va kichik banklar esa mobil banking, masofaviy xizmatlar hamda maqsadli kreditlash segmentlarini faol rivojlantirish orqali o'z bozor ulushini barqaror ravishda oshirib bordi. 2020-yildan keyin Uzum, TBC, Universal va Anor kabi raqamli banklar kreditlash jarayonlarida AI-skoring va avtomatlashtirilgan tekshiruv tizimlarini joriy etish orqali qisqa muddatda taxminan 20 % bozor ulushini shakllantirib, yirik banklar pozitsiyasiga sezilarli raqobat bosimini yuzaga keltirdi (1-rasm).


1-rasm. O'zbekiston bank bozorida segmentlar bo'yicha bozor ulushi dinamikasi (2016–2025)³

Diagramma 2016–2025–yillar davomida bank segmentlari bozor ulushlarining sezilarli darajada qayta taqsimlanganini ko'rsatadi: yirik universal banklar ulushi 68 % dan 46 % gacha kamaygan bo'lsa, o'rta va kichik banklar ulushi 28 % dan 34 % gacha oshgan, raqamli banklar ulushi esa 4 % dan 20 % gacha ko'tarilgan. Ushbu jarayon bozorning monopolistik markazlashuvdan raqamli diversifikatsiyaga bosqichma-bosqich o'tayotganini

² Muallif hisob-kitoblari Markaziy bank (2016–2025) ochiq ma'lumotlari asosida.

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Bank sektori ko'rsatkichlari" statistik byulletenlari (2016–2024). 2025 yil ko'rsatkichlari — muallif tomonidan mavjud tendensiyalar asosida prognoz qilingan.



tasdiqlaydi. Raqamli banklar “disruptor” sifatida bozor arxitekturasini va mijozlar oqimini tubdan yangilab, yirik banklarning narx belgilash imkoniyatlarini sezilarli darajada chekladi. Raqobat muhitining kuchayishi natijasida an’anaviy banklar komissiya va tarif siyosatini yanada moslashuvchan shakllantirishga yo’naltirildi.

Raqamli bank xizmatlarining izchil kengayishi O’zbekiston bank sektorida HHI (konsentratsiya ko’rsatkichi) va Lerner indeksi (narx belgilash kuchi) o’rtasida teskari bog’liqlikning shakllanishiga olib keldi. 2016–2025–yillar davomida raqamli infratuzilmaning jadal o’sishi natijasida bozor ulushlari ko’proq ishtirokchilar o’rtasida taqsimlanib, konsentratsiya darajasi pasaydi, shu bilan birga, banklarning monopol kuchi ham izchil ravishda qisqardi.

QR-to’lovlar va onlayn tranzaksiyalar ulushining oshishi komissiya daromadlari tarkibini sezilarli darajada diversifikatsiyaladi hamda raqamli banklar uchun yangi rentabellik manbalarini shakllantirdi. Raqamli xizmatlarning kengayishi operatsion xarajatlarni optimallashtirib, filial bilan bog’liq xarajatlarni minimallashtirdi va natijada ROA ko’rsatkichining 0,72 dan 1,05 gacha oshishiga xizmat qildi. Kreditlash hajmining kengayishi natijasida CAR ko’rsatkichi 15,3 % dan 13,2 % gacha pasaygan bo’lsa-da, bu holat bozorning kengayishi bilan bog’liq tabiiy jarayon sifatida baholanadi. Raqobat muhitining kuchayishi sharoitida banklar ECL, IFRS 9, scoring hamda avtomatlashtirilgan risk-modellarni izchil joriy etish orqali NPL darajasini barqaror nazorat qilish imkoniyatini kengaytirdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O’zbekiston bank tizimida 2016–2025–yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari banklararo raqobatni sezilarli darajada kuchaytirgani HHI va Lerner indekslari dinamikasi orqali asoslandi. Mobil banking, QR-to’lovlar, onlayn kreditlash hamda fintech ekotizimining jadal rivojlanishi bozor konsentratsiyasini pasaytirib, yirik banklar ustunligini kamaytirdi va bozorni diversifikatsiyaladi; raqamli texnologiyalarning kengayishi xizmatlar narxining moslashuvchanlashuvi, marjaning optimallashtirish va komissiya daromadlari tarkibining yangilanishi orqali operatsion samaradorlikni oshirdi. Raqamli banklar (Uzum, TBC, Universal, Anor) qisqa muddatda sezilarli bozor ulushini shakllantirib, an’anaviy banklarning strategik pozitsiyalariga raqobat bosimini kuchaytirdi va natijada bank sektori ko’p ishtirokchili, ochiq hamda innovatsion raqobat maydoniga yaqinlashdi.

Shu munosabat bilan Open Banking (ochiq API) tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, raqamli banklar uchun yengillashtirilgan litsenziyalash rejimini qo’llash, AI–scoring va avtomatlashtirilgan kredit tekshiruvlarini standartlashtirish, komissiya va tariflar bo’yicha shaffoflik me’yorlarini kuchaytirish, QR va mobil to’lovlar uchun yagona texnik standartlarni joriy etish, raqamli xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida “CyberShield Bank” markazini tashkil etish hamda banklar va fintechlar o’rtasida qo’shma loyihalarni moliyalashtirish jamg’armasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O’zbekiston bank sektorining raqobatbardoshligini oshiradi, innovatsion xizmatlar bozorini kengaytiradi va moliyaviy barqarorlikning yangi bosqichini shakllantiradi; raqamli transformatsiya jarayonlari davom ettirilgan taqdirda, bank tizimi 2030–yilgacha Markaziy Osiyodagi eng ilg’or raqamli moliya ekotizimlaridan biriga aylanishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. O’zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo’yicha strategik tashabbuslar to’g’risidagi chiqishlar. – Toshkent, 2021.
2. Claessens, S., & Laeven, L. Financial sector competition and measures of competition. Journal of Money, Credit and Banking, 2004.
3. World Bank. Banking Competition Reports. Washington, DC: World Bank Publications, 2019–2024.
4. Bikker, J., & Spierdijk, L. Handbook of Competition in Banking and Finance. Edward Elgar Publishing, 2017.
5. Mirzayev F. O’zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari. Doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent: TDIU, 2020.
6. Ortiqov A. O. Bank xizmatlari bozori raqobatini oshirishning nazariy va amaliy muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
7. Qulmetov M. R. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va uning bank tizimiga ta’siri. – Toshkent: Fan, 2022.
8. Saidov S., Raximov Sh. Fintech ekotizimi rivoji va bank raqobatiga ta’siri. Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, 2023.
9. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank sektori statistik byulletenlari (2016–2024). – Toshkent: MB nashrlari.
10. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamli iqtisodiyot ko’rsatkichlari bo’yicha yillik hisobotlar (2016–2024).
11. IMF. Digital Financial Services and Competition in Emerging Markets. IMF Working Papers, 2023.
12. BIS. Digital Payments and Market Structure Report. Bank for International Settlements, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
